29.	<p>Jamiyatning 5 va undan ortiq foiz aksiyalari (ulushi)ga ega bo‘lgan aksiyadorlari (ishtirokchilari):</p> <p><i>(Ko‘rsatiladi:</i> <i>aksiyadorning ishtirokchining F.I.O., soliq to‘lovchining individual raqami (jismoniy shaxs uchun);</i> <i>to‘liq nomi, soliq to‘lovchining individual raqami, joylashgan manzili (yuridik shaxslar uchun);</i> <i>kuzatuv kengashi har bir azosiga tegishli jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining jamiyat ustav kapitalidagi ovoz beruvchi aksiyalarining umumiy hajmiga foiz nisbati;</i> <i>ta’sischi yoki yirik aksiyador (ishtirokchi) jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining 5 va undan ortiq foiziga yoki ustav kapitalidagi ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana)</i></p>	<p>Акционеры (участники) общества, владеющие 5 и более процентами акций (доли) общества.</p> <p><i>(Указываются:</i> <i>Ф.И.О., индивидуальный номер налогоплательщика (при наличии) акционера участника (для физического лица);</i> <i>полное наименование, местонахождение, индивидуальный номер налогоплательщика акционера участника (для юридического лица);</i> <i>процентное соотношение голосующих акций (долей участия в уставном капитале) общества, принадлежащих крупному акционеру (участнику), к общему количеству голосующих акций или долей участия в уставном капитале общества;</i> <i>дата, с которой учредитель или крупный акционер (участник) стал владеть 5 и более процентами голосующих акций или долей участия в уставном капитале общества)</i></p>
	<p>Lagutin Sergey Valentinovich – ustav kapitalining 61,804% ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi Jamiyat aksiyadori. JSHSHIR: 32012730270085. 2020-yil yanvar oyidan boshlab 5 va undan ortiq foiz ulushga ega ishtirokchi hisoblanadi.</p> <p>Rayxert Natalya Ivanovna – ustav kapitalining 10,987% ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi Jamiyat aksiyadori. JSHSHIR: 40102770450024. 2024-</p>	<p>Лагутин Сергей Валентинович – акционер Общества, владеющий 61,804% голосующих акций уставного капитала. ПИНФЛ: 32012730270085. Является участником с долей 5 и более процентов с января 2020 года.</p> <p>Райхерт Наталья Ивановна – акционер Общества, владеющий 10,987% голосующих акций уставного капитала. ПИНФЛ: 40102770450024. Является</p>

	<p>yil iyun oyidan boshlab 5 va undan ortiq foiz ulushga ega ishtirokchi hisoblanadi.</p> <p>Lagutin Artyom Sergeevich – ustav kapitalining 10,828% ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi Jamiyat aksiyadori. JSHSHIR: 52409010270668. 2023-yil noyabr oyidan boshlab 5 va undan ortiq foiz ulushga ega ishtirokchi hisoblanadi.</p> <p>Popova Nina Aleksandrovna – ustav kapitalining 16,363% ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi Jamiyat aksiyadori. JSHSHIR: 41807608660015. 2024-yil dekabr oyidan boshlab 5 va undan ortiq foiz ulushga ega ishtirokchi hisoblanadi.</p>	<p>участником с долей 5 и более процентов с июня 2024 года.</p> <p>Лагутин Артём Сергеевич – акционер Общества, владеющий 10,828% голосующих акций уставного капитала. ПИНФЛ: 52409010270668. Является участником с долей 5 и более процентов с ноября 2023 года.</p> <p>Попова Нина Александровна – акционер Общества, владеющий 16,363% голосующих акций уставного капитала. ПИНФЛ: 41807608660015. Является участником с долей 5 и более процентов с декабря 2024 года.</p>
30.	<p>Jamiyatning boshqa affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlar:</p> <p>Jamiyat boshqa affillangan shaxslarga ega emas.</p>	<p>Сведения о других аффилированных лицах общества.</p> <p>Общество не имеет других аффилированных лиц.</p>
V.	<p>JAMIYATNING MOLIVAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI KO'RSATKICHLARI</p>	<p>ПОКАЗАТЕЛИ ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА</p>
31.	<p>Jamiyat faoliyati turlari:</p> <p>asosiy faoliyat turi va ishlab chiqariladigan mahsulotlar (xizmatlar) turlari;</p> <p>Jamiyatning asosiy faoliyat turi O'zbekiston Respublikasi hududida jismoniy va yuridik shaxslarga mikro moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat.</p> <p>Jamiyat faoliyatiga quyidagilar kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • mikromoliyaviy faoliyatni amalga oshirish; • banklar, sug'urta va boshqa moliya tashkilotlarining to'lov agenti (subagenti) yoki agenti sifatida faoliyat yuritish; • amalga oshirilayotgan faoliyat bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatish; • tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit summasidan oshiq miqdorda kreditlar, lizing, kafolatlar taqdim etish, pul talabini ustuvor qilish asosidagi moliyalashtirish (faktoring) va islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish. <p>Faoliyatni amalga oshirish milliy valyuta – O'zbekiston so'mida olib boriladi.</p>	<p>Виды деятельности общества.</p> <p>основной вид деятельности и виды производимой продукции (услуг);</p> <p>Основным видом деятельности Общества является предоставление микрофинансовых услуг физическим и юридическим лицам на территории Республики Узбекистан.</p> <p>Деятельность Общества включает:</p> <ul style="list-style-type: none"> • осуществлять микрофинансовую деятельность; • осуществлять функции платежного агента (субагента) или агента банков, страховых и иных финансовых организаций; • оказывать консультационные и информационные услуги, связанные с осуществляемой ими деятельностью; • предоставлять субъектам предпринимательства кредиты, лизинг, гарантии, оказывать услуги по финансированию под уступку денежного требования (факторинг) и услуги исламского финансирования в размере, превышающем сумму микрокредита. <p>Осуществление деятельности производится в национальной валюте – узбекских сумах.</p>
	<p>jamiyatning litsenziyalari (patentlari) to'g'risidagi ma'lumotlar.</p> <p>Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2018-yil 15-dekabrda qonun hujjatlariga muvofiq berilgan 53-sonli tegishli litsenziya asosida amalga oshiradi.</p>	<p>информация о лицензиях (патентах), имеющихся у общества.</p> <p>Общество осуществляет свою деятельность на основании соответствующей лицензии №53, выданной Центральным банком Республики Узбекистан в соответствии с законодательством 15 декабря 2018 года.</p>
32.	<p>Jamiyatning bozordagi ulushi to'g'risidagi ma'lumot:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga "AGAT CREDIT" AJ MMT umumiy kredit portfelida mikro moliya tashkilotlari bozorining 1,35 foiz ulushiga ega.</p>	<p>Сведения о доли общества на рынке:</p> <p>На основании данных Центрального банка Республики Узбекистан, по состоянию на 01 января 2026 года, АО МФО «AGAT CREDIT» занимает 1,35% рынка микрофинансовых организаций по совокупному кредитному портфелю.</p>
33.	<p>Sohaning kelajakdagi taraqqiyoti borasidagi prognozlar va ushbu sohadagi jamiyatning o'rni:</p> <p>Makroiqtisodiy muhit:</p> <p>O'zbekiston iqtisodiyoti ishonchli o'sishda davom etmoqda, bu so'nggi yillardagi natijalar bilan mustahkamlanmoqda. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) 7,7 foizga o'sib, 145 mlrd dollarni yoki 1 849,7 trln so'mni tashkil etdi. YAIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi: xizmatlar sohasi - 48,6%, sanoat - 26,8%, agrosektor - 17,3%, qurilish - 7,3% ni tashkil etdi.</p>	<p>Прогноз в отношении будущего развития отрасли и положения общества в данной отрасли:</p> <p>Макроэкономическая среда:</p> <p>Экономика Узбекистана продолжает уверенно расти, что подкрепляется результатами последних лет. Валовый внутренний продукт (ВВП) вырос на 7,7%, составив \$145 млрд или 1 849,7 трлн сум. Структура ВВП по видам экономической деятельности: услуги - 48,6%, промышленность - 26,8%, агросектора - 17,3%, строительство - 7,3%.</p>

<p>MMT bozori: Aholi va biznes o'rtasida mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan yuqori talab bozorning jadal o'sish dinamikasiga asoslanadi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mikromoliya tashkilotlarining (MMT) umumiy kredit portfeli 10,8 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,7 foizga o'sdi. Muammoli kreditlarning (NPL) bozor bo'yicha o'rtacha ulushi 2,4% darajasida saqlanib qoldi, bu 263,5 mlrd so'mga teng.</p> <p>2025 yilda mikromoliyalash bozori emitentlari oldida faoliyatni kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun yangi strategik istiqbollar ochildi.</p> <p>2025-yil 12-fevraldan boshlab mamlakatda mikromoliya tashkilotlariga mikromoliyaviy banklarga (MMB) aylanish imkonini beruvchi qonun kuchga kirdi, bu esa bank vositalaridan foydalanish imkoniyatini ochadi va moliya sektorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi tartibga soluvchi o'zgarishlar MMBga omonatlarning ommabopligini oshirish, likvidlikni mustahkamlash va qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini yaratish orqali aholidan depozitlarni jalb qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, qonunda MMBni keyinchalik tijorat banklariga transformatsiya qilish imkoniyati, shuningdek banklarni mikromoliyaviy tashkilot maqomiga o'tkazishning teskari jarayoni nazarda tutilgan.</p> <p>Shu bilan birga, an'anaviy banklar tomonidan raqobat asta-sekin tartibga solinmoqda. 2025-yil 24-iyuldan boshlab Markaziy bankning qarori kuchga kirdi, unga ko'ra, banklarning kredit portfelida (mikromoliyaviy kreditlardan tashqari) mikroqarzlarning cheklangan ulushi, avtokreditlar uchun belgilanganidek, 25 foizdan oshmasligi kerak. Ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlardan yuqori bo'lgan banklarga 2029-yil 1-yanvargacha o'tish davri beriladi — regulyator bilan kelishilgan holda ularning konsentratsiyasini bosqichma-bosqich pasaytirish.</p> <p>Jamiyatning bozordagi mavqei 2026-yil 1-yanvar holatiga Jamiyatning kredit portfeli bo'yicha jami bozordagi ulushi 1,35%ni tashkil etib, 132 ta faoliyat yuritayotgan MMT ro'yxatida 12-o'rinni egalladi.</p> <p>Jamiyat an'anaviy moliyalashtirishdan qisman yoki cheklangan tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan o'zini o'zi band qilgan va yakka tartibdagi tadbirkorlarga yo'naltirilgan kredit siyosati bilan boshqa MMTlardan ajralib turadi. Ushbu segmentga e'tibor qaratgan holda, Jamiyat doimiy mijozlar bazasini shakllantiradi va mikromoliyalash bozorida barqaror o'rinni egallaydi.</p> <p>Shuningdek, 2025-yilning oktyabr oyida Jamiyat tomonidan Markaziy bankka Mikromoliya banki (MMB) maqomini olish uchun ariza va talab etiladigan hujjatlar to'plami taqdim etildi.</p>	<p>Рынок МФО: Высокий спрос на микрофинансовые услуги среди населения и бизнеса находит свое основание в стремительной динамике роста рынка. По состоянию на 1 января 2026 года совокупный кредитный портфель микрофинансовых организаций (МФО) достиг 10,8 трлн сум, показав рост на 43,7% год к году. Средняя доля проблемных кредитов (NPL) по рынку сохранилась на уровне 2,4%, что эквивалентно 263,5 млрд сум.</p> <p>В 2025 году перед эмитентами рынка микрофинансирования открылись новые стратегические перспективы для расширения деятельности и повышения конкурентоспособности.</p> <p>С 12 февраля 2025 года в стране вступил в силу закон, позволяющий микрофинансовым организациям трансформироваться в микрофинансовые банки (МФБ), что открывает доступ к банковским инструментам и способствует укреплению финансового сектора. Новые регуляторные изменения дают МФБ возможность привлекать депозиты от населения, повышая доступность сбережений, укрепляя ликвидность и создавая дополнительные источники финансирования. Кроме того, законом предусмотрена возможность дальнейшей трансформации МФБ в коммерческие банки, а также обратный процесс перехода банков в статус микрофинансовых организаций.</p> <p>При этом конкуренция от традиционных банков постепенно начинает регулироваться. С 24 июля 2025 года вступило в силу постановление Центрального банка, устанавливающее предельную долю микрозаймов в кредитных портфелях банков (кроме микрофинансовых) — не более 25%, как и для автокредитов. Банкам, чьи показатели превышают установленные нормы, предоставлен переходный период до 1 января 2029 года — поэтапным снижением концентрации по согласованию с регулятором.</p> <p>Позиции Общества на рынке По состоянию на 1 января 2026 года доля Общества составила 1,35% от общего объема рынка по кредитному портфелю, заняв 12-ю строчку в списке 132 действующих МФО.</p> <p>На фоне других МФО Общество выделяется своей политикой кредитования, ориентированной исключительно на самозанятых и индивидуальных предпринимателей, которые имеют частичный или ограниченный доступ к традиционному финансированию. Фокусируясь на этом сегменте, Общество формирует постоянную клиентскую базу и занимает устойчивую нишу на рынке микрофинансирования.</p> <p>Дополнительно, в октябре 2025 года Общество подало заявление и комплект необходимых документов в Центральный банк для получения статуса Микрофинансового банка.</p>
<p>34. So'nggi 3 (uch) yil ichida yoki jamiyatning rasmiy faoliyati davrida sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ish, xizmatlar) hajmi: (Bo'sh katakda jamiyat necha yillik ma'lumotlarni taqdim etayotganligi ko'satiladi.)</p> <p>2023-yilda - 160,9 mlrd so'm kredit berilgan;</p>	<p>Объемы реализованной продукции (выполненных работ, услуг) за последние 3 (три) года. (В пустой графе указывается количество лет, по которым общество раскрывает информацию)</p> <p>2023 год – выдано кредитов на сумму 160,9 млрд сум;</p>

	2024-yilda - 95,2 mlrd so'm kredit berilgan. 2025-yilda - 182,7 mlrd so'm kredit berilgan;	2024 год – выдано кредитов на сумму 95,2 млрд сум. 2025 год – выдано кредитов на сумму 182,7 млрд сум.
35.	<p>Jamiyatning o'z mahsulotlari (ishlari, xizmatlari)ni sotishni tashkil etish bo'yicha faoliyati: (Ko'rsatiladi: jamiyat iste'mol qiladigan tovarlar (ish, xizmat) umumiy hajmining 10 va undan ortiq foiziga to'g'ri keladigan yetkazib beruvchilar nomi va joylashgan manzili; jamiyat ishlab chiqaradigan tovarlar (ish, xizmat) umumiy hajmining 10 va undan ortiq foizini iste'mol qiladigan iste'molchilar nomi va joylashgan manzili)</p> <p>Jamiyat o'z xizmatlarini "yengil" ofislar tarmog'i orqali to'g'ridan to'g'ri sotish kanali orqali amalga oshiradi.</p> <p>Asosiy savdo kanallariga quyidagilar kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston Respublikasining 12 ta hududida joylashgan 45ta savdo ofisidan iborat filial tarmog'i; • Jamiyatning axborot sayti: www.agatcredit.uz veb-sayti orqali mijozlar mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun onlayn ariza topshirishlari mumkin, bu esa xizmatning qulayligi va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi. <p>Jamiyatning yondashuvi o'zini o'zi band qilgan fuqarolar va kichik biznes vakillariga xizmat ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, asosiy e'tibor moliyaviy yechimlarni tezkor va sifatli taqdim etishga qaratilgan.</p>	<p>Деятельность общества по организации продаж своей продукции (работ, услуг). (Указывается: наименования и место нахождения поставщиков общества, на которых приходится 10 и более процентов от общего объема потребляемых обществом товаров (работ, услуг); наименования и место нахождения потребителей, на долю которых приходится 10 и более процентов от общего объема, производимого обществом товаров (работ, услуг)</p> <p>Общество осуществляет реализацию своих услуг посредством канала прямых продаж через сеть «легких» офисов.</p> <p>Основные каналы продаж включают:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Филиальная сеть, состоящая из 45 офисов продаж, расположенных в 12 регионах Республики Узбекистан; • Информационный сайт Общества: через веб-сайт www.agatcredit.uz клиенты могут подавать онлайн-заявки на получение микрофинансовых услуг, что способствует повышению доступности и оперативности обслуживания. <p>Подход Общества ориентирован на обслуживание самозанятых граждан и представителей малого бизнеса, с акцентом на оперативное и качественное предоставление финансовых решений.</p>
36.	<p>Jamiyat faoliyatiga ta'sir qiladigan omillar:</p> <p>Jamiyat faoliyati asosiy turlari bo'yicha savdo (ish, xizmat) daromadlilikiga ijobiy va salbiy ta'sir qiladigan omillar:</p> <p>Ijobiy omillar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Aholi va kichik biznes subyektlari o'rtasida mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi; • Kichik va o'rta tadbirkorlik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; • Kompaniya xizmatlaridan foydalanishni osonlashtiradigan raqamli texnologiyalarni faol joriy etish. <p>Salbiy omillar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Inflyatsiya va inflyatsion kutilmalarning yuqori darajasi; • Aholi qarzdorligining o'sishi; • Bozorda mikroqarzarlar bo'yicha stavkalarini tartibga solish. <p>b) jamiyatning sud jarayonlaridagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar: (Jamiyat faoliyatining to'xtatilishi xavfi yoki o'zgarishi, jamiyat aktivlari umumiy hajmining 10 (o'n) va undan ortiq foizi miqdoridagi pul va boshqa majburiyatlarning undirilishi bilan bog'liq sud jarayonlaridagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatish kerak. Jamiyat qimmatli qog'ozlarini xarid qilish to'g'risidagi qaror qabul qilishda muhim deb bilgan boshqa sud jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham oshkor qilishi mumkin)</p>	<p>Факторы, влияющие на деятельность общества:</p> <p>а) факторы, позитивно и негативно влияющие на доходность продаж (работ, услуг) по основным видам деятельности общества;</p> <p>Позитивные факторы:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Рост спроса на микрофинансовые услуги среди населения и малого бизнеса; • Государственная поддержка сектора малого и среднего предпринимательства; • Активное внедрение цифровых технологий, упрощающих доступ к услугам компании. <p>Негативные факторы:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Высокий уровень инфляции и инфляционных ожиданий; • Рост закредитованности населения; • Регулирование ставок по микрозаймам на рынке. <p>б) сведения об участии общества в судебных процессах; (Необходимо представить сведения об участии общества в судебных процессах, связанных с риском прекращения или изменения деятельности общества, взыскания с него денежных и иных обязательств в размере 10 и более процентов от общего объема активов общества. Общество имеет право раскрывать информацию и об иных судебных процессах, если по мнению общества раскрытие такой информации является существенным для принятия решения о приобретении ценных бумаг общества)</p> <p>В отношении Общества судебные разбирательства, связанные с риском прекращения или изменения деятельности Общества, а также с риском взыскания денежных или иных обязательств в размере 10 и более процентов от общего объема активов Общества, не ведутся.</p> <p>Общество не является ответчиком по каким-либо судебным делам, которые могли бы существенно повлиять на его финансово-хозяйственную деятельность. В рамках текущей операционной деятельности Общество осуществляет исковую работу по взысканию просроченной задолженности с</p>

<p>Ma'lumotlar oshkor qilingan paytda muammoli mijozlar bilan ko'pi bilan beshta sud jarayoni olib borilmoqda.</p>	<p>отдельных заемщиков. На момент раскрытия информации ведётся не более пяти судебных процессов с проблемными клиентами.</p>
<p>v) vakolatli davlat organlari va (yoki) sud tomonidan so'nggi 1 (bir) yil davomida jamiyatga va uning boshqaruv organi a'zolariga nisbatan qo'llangan barcha ma'muriy jazolar (sanksiyalar, jumladan moliyaviy) to'g'risidagi ma'lumotlar <i>(Sanksiyani belgilagan organ, sana, qo'llash sabablari, hajmi, shuningdek, ushbu sanksiyalar kimga nisbatan qo'llangani va risola tasdiqlangan sanaga ularning bajarilishi darajasi. Bo'sh katakda jamiyat necha yillik ma'lumotlarni taqdim etayotganligi ko'rsatiladi)</i></p>	<p>в) сведения обо всех административных взысканиях, наложенных на общество и членов его органа управления уполномоченными государственными органами и (или) судом в течение 1 (одного) года. <i>(Указывается информация о дате, органе, причине и размере наложенных санкций, а также в отношении кого были применены данные санкции и степени их исполнения к моменту утверждения проспекта. В пустой графе указывается количество лет, по которым общество раскрывает информацию)</i></p>
<p>2025-yil davomida Jamiyat va uning boshqaruv organlari a'zolariga nisbatan vakolatli davlat organlari va (yoki) sud tomonidan qo'llanilgan ma'muriy jazo choralari qo'llanilmagan.</p> <p>2025-yilda Jamiyat faoliyatiga yoki uning boshqaruv organlari obro'siga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan sanksiyalar qo'llanilmagan.</p>	<p>За 2025 год на Общества и на членов его органов управления административные взыскания, наложенные уполномоченными государственными органами и (или) судом, не применялись.</p> <p>В 2025 году не имело места наложение санкций, которые могли бы повлиять на деятельность Общества или репутацию его органов управления.</p>
<p>g) tavakkalchilik omillari: jamiyat faoliyati bilan bog'liq xavf-xatarlar: <i>(Jamiyat faoliyatiga xos yoki asosiy moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xavf-xatarlar, jumladan, quyidagilar bilan bog'liq xatarlar tavsiflanadi: Ma'lum turdagi faoliyatni yuritish uchun yoki muomalasi cheklangan obyektlar (jumladan, tabiiy resurslar)dan foydalanish uchun litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish imkoniyatining yo'qligi; Uchinchi shaxslar, jumladan, jamiyatning shu'ba tashkilotlari bo'yicha jamiyat javobgarligi; Savdo hajmi mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan olinadigan jami daromadning kamida 10 (o'n) foiziga to'g'ri keladigan iste'molchilarni yo'qotish ehtimoli)</i></p>	<p>г) факторы риска: риски, связанные с деятельностью общества; <i>(Описываются риски, свойственные исключительно деятельности общества или связанные с основной финансово-хозяйственной деятельностью, в том числе риски, связанные с: отсутствием возможности продлить действие лицензии общества на ведение определенного вида деятельности либо на использование объектов, нахождение которых в обороте ограничено (включая природные ресурсы); возможной ответственностью общества по долгам третьих лиц, в том числе дочерних организаций общества; возможностью потери потребителей, на оборот с которыми приходится не менее чем 10 процентов общей выручки от продажи продукции (работ, услуг) общества)</i></p>
<p>Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 15.12.2018-yilda berilgan 53-sonli litsenziya asosida faoliyat yuritadi. Mazkur litsenziya cheklanmagan muddatga amal qiladi, biroq Markaziy bank Jamiyat tomonidan iqtisodiy normativlar bajarilishini muntazam ravishda nazorat qilib boradi. Ushbu normativlar bajarilmagan taqdirda Markaziy bank litsenziyani qaytarib olishi yoki uning amal qilishini to'xtatishi mumkin.</p> <p>Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga, shu jumladan, "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni va "Jinoiy faoliyatsizlikning olinadigan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya qilmaslik ham litsenziyaning qaytarib olinishiga olib kelishi mumkin. Jamiyat faoliyatiga mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat ta'sir ko'rsatishi mumkin.</p> <p>Ushbu emissiya prospekti tasdiqlangunga qadar jamiyatning uchinchi shaxslar, shu jumladan sho'ba korxonalar oldidagi javobgarligi bilan bog'liq tavakkalchiliklar, shuningdek, berilgan kreditlar hisobiga olingan daromadning 10 foizi va undan ko'prog'iga teng bo'lgan yo'qotishlar mavjud emas.</p>	<p>Общество осуществляет деятельность на основании лицензии за №53, выданной Центральным банком Республики Узбекистан от 15.12.2018 года. Данная лицензия действует на неограниченный срок, однако Центральный банк регулярно контролирует выполнение Обществом экономических нормативов. В случае невыполнения этих нормативов Центральный банк может отозвать лицензию или прекратить ее действие.</p> <p>Кроме того, несоблюдение требований законодательства Республики Узбекистан, включая Указ Президента «О дополнительных мерах по повышению доступности банковских услуг» и Закона «О противодействии легализации доходов, полученных преступным путем, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения», также может привести к отзыву лицензии.</p> <p>На деятельность общества могут влиять экономическая и политическая ситуация в стране.</p> <p>До момента утверждения данного эмиссионного проспекта отсутствуют риски, связанные с ответственностью общества перед третьими лицами, включая дочерние предприятия, а также потери, эквивалентные 10% или более дохода, полученного за счет выданных кредитов.</p>
<p>tarmoq xavf-xatarlari: <i>(Tarmoqdagi vaziyat yomonlashuvining jamiyat faoliyati va o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkinligi bayon qilinadi. Jamiyat fikriga ko'ra, tarmoqda bo'lishi mumkin bo'lgan eng ahamiyatli o'zgarishlar (ichki va tashqi bozorda alohida) ko'rsatiladi. Jamiyat o'z faoliyatida foydalanadigan xomashyo, xizmatlar (ichki va tashqi bozorda alohida) narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar alohida bayon qilinadi. Jamiyat mahsulotlari va (yoki) xizmatlari narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar (ichki va tashqi bozorda alohida), va ularning jamiyat faoliyatiga bo'lgan ta'siri alohida bayon qilinadi)</i></p>	<p>отраслевые риски: <i>(Описывается влияние возможного ухудшения ситуации в отрасли общества на его деятельность и исполнение им обязательств. Приводятся наиболее значимые, по мнению общества, возможные изменения в отрасли (отдельно на внутреннем и внешнем рынках). Отдельно описываются риски, связанные с возможным изменением цен на сырье, услуги, используемые обществом в своей деятельности (отдельно на внутреннем и внешнем рынках), и их влияние на деятельность общества.</i></p>



	<p><i>Отдельно описываются риски, связанные с возможным изменением цен на продукцию и (или) услуги общества (отдельно на внутреннем и внешнем рынках), и их влияние на деятельность общества)</i></p>
<p>Mikromoliya tashkiloti faoliyati bilan bog'liq sohaviy xatarlar quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Jalb etilgan moliyaviy resurslar hajmining kamayishi yoki ularning qiymatlashishi. • Markaziy bank tomonidan belgilangan ustav kapitali me'yorlarini oshirish. • Aktivlarni tasniflash va ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish bo'yicha talablarni kuchaytirish. • Respublikada soliq stavkalarining o'zgarishi. • Jamiyat mulkiga o'tgan mol-mulkni sotishni tartibga soluvchi qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishi. • Ko'p yillik ish tajribasiga ega bo'lgan yirik xorijiy mikromoliya tashkilotlarining bozorga kirishi. 	<p>Отраслевые риски, связанные с деятельностью микрофинансовой организации, включают в себя следующие факторы:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Снижение объема привлеченных финансовых ресурсов или их удорожание. • Повышение нормативов уставного капитала, установленных Центральным банком. • Ужесточение требований по классификации активов и формированию резервов на покрытие возможных убытков. • Изменение налоговых ставок в Республике. • Внесение изменений в законодательство, регулирующее реализацию имущества, перешедшего в собственность общества. • Выход на рынок крупных иностранных микрофинансовых организаций с многолетним опытом работы.
<p>moliyaviy xavf-xatarlar: <i>(Jamiyat moliyaviy ahvolidning foiz stavkalari, xorijiy valyutani ayirboshlash kursi, shuningdek, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan bozor narxlarining salbiy tomonga o'zgarishiga aloqador xatarlarga bog'liqligi bayon qilinadi.</i> <i>Jamiyat moliya aktivlari va moliya majburiyatlari nomuvofiqligi (jumladan, jamiyatning bir yoki bir necha kontragentlari moliya majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasligi oqibatida) va (yoki) kutilmaganda jamiyat moliya majburiyatlarini zudlik bilan bir vaqtning o'zida amalga oshirish zarurati yuzaga kelishi oqibatida jamiyat o'z majburiyatlarini to'la bajara olmasligi bilan bog'liq xatarlar alohida bayon qilmadi.</i> <i>Moliya xatarlari ta'sirida moliya hisobotining qayst ko'rsatkichlari o'zgarishga ko'proq moyilligi, ularning paydo bo'lish ehtimoli va hisobotda o'zgarishi xarakteri ko'rsatiladi)</i></p>	<p>финансовые риски: <i>(Описывается подверженность финансового состояния общества рискам, связанным с неблагоприятным изменением процентных ставок, курса обмена иностранных валют, а также рыночных цен на ценные бумаги.</i> <i>Отдельно описываются риски, связанные с возникновением у общества убытков вследствие неспособности общества обеспечить исполнение своих обязательств в полном объеме, возникающие в результате несбалансированности финансовых активов и финансовых обязательств общества (в том числе вследствие несвоевременного исполнения финансовых обязательств одним или несколькими контрагентами общества) и (или) возникновения непредвиденной необходимости немедленного и одновременного исполнения обществом своих финансовых обязательств.</i> <i>Указывается, какие из показателей финансовой отчетности общества наиболее подвержены изменению в результате влияния финансовых рисков, вероятность их возникновения и характер изменений в отчетности)</i></p>
<p>Jamiyatning moliyaviy xavf-xatarlari kreditorlar va ishtirokchilar oldidagi majburiyatlarni bajara olmaslik, moliyaviy barqarorlikning pasayishi, jamiyatning to'lov qobiliyati to'g'risida jamoatchilikda salbiy fikrning shakllanishi, mijozlar bazasining qisqarishi, ko'rsatlayotgan xizmatlar sifatining pasayishi va buning natijasida zararlarning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi.</p> <p>Asosiy moliyaviy xavf-xatarlarga quyidagilar kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Kredit xavfi - qarz oluvchilar tomonidan kredit shartnomalari bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi, ularning to'lov qobiliyatining pasayishi. • Bozor xavfi - foiz stavkalarining noqulay o'zgarishi va boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan raqobatning kuchayishi. • Likvidlik xavfi - jamiyatning o'z moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi, aktivlar likvidligining pasayishi, mijozlar va investorlar oldidagi to'lov qobiliyatining yomonlashuvi. • Foiz xavfi - jamiyat aktivlari va majburiyatlari bo'yicha foiz stavkalarining mos kelmasligi, sof foizli daromad va/yoki kapitalning pasayishi. • Inflyatsiya va valyuta xavfi - inflyatsiyaning o'sishi va valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida aktivlarning qadrsizlanishi. • Kredit portfeli va joylashtirilgan aktivlar diversifikatsiyasining yetishmasligi. <p>Jamiyat moliyaviy hisobotining moliyaviy xavf-xatarlar ta'siri natijasida o'zgarishga eng ko'p moyil bo'lgan ko'rsatkichlari:</p> <p>— foizli daromadlar;</p>	<p>Финансовые риски общества включают невозможность выполнения обязательств перед кредиторами и участниками, снижение финансовой устойчивости, формирование негативного общественного мнения о платежеспособности общества, сокращение клиентской базы, снижение качества предоставляемых услуг и, как следствие, возникновение убытков.</p> <p>К основным финансовым рискам относятся:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Кредитный риск – невыполнение заемщиками обязательств по кредитным договорам, снижение их платежеспособности. • Рыночный риск – неблагоприятное изменение процентных ставок и усиление конкуренции со стороны других финансовых организаций. • Риск ликвидности – неспособность общества своевременно исполнять свои финансовые обязательства, снижение ликвидности активов, ухудшение платежеспособности перед клиентами и инвесторами. • Процентный риск – несоответствие процентных ставок по активам и обязательствам общества, снижение чистого процентного дохода и/или капитала. • Инфляционный и валютный риск – обесценивание активов вследствие роста инфляции и изменения валютных курсов. • Отсутствие диверсификации кредитного портфеля и размещенных активов. <p>Наиболее подверженные изменению в результате влияния финансовых рисков показатели финансовой отчетности Общества:</p> <p>— процентные доходы;</p>

<ul style="list-style-type: none"> — foizli xarajatlar; — sof foyda; — kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplash zaxirasi; — xususiy kapital 	<ul style="list-style-type: none"> — процентные расходы; — чистая прибыль; — резерв под убытки от кредитов; — собственный капитал.
<p>huquqiy xavf-xatarlar:</p>	<p>юридические риски:</p>
<p>Yuridik xavf-xatarlar normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarning buzilishi, yuridik xatolarga yo'l qo'yilishi (noto'g'ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni rasmiylashtirish), huquqiy tizimning nomukamalligi yoki qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Shuningdek, hamkorlar tomonidan me'yoriy hujjatlarni buzish xavfi mavjud bo'lib, bu jamiyat uchun moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.</p> <p>Yuridik xavf-xatarlarni boshqarish uchun jamiyat ularni monitoring qilish, yuridik xavf-xatarning yo'l qo'yiladigan darajasini saqlab turish, ichki me'yoriy hujjatlarga rioya etish, shuningdek jamiyat va uning xodimlari noqonuniy xatti-harakatlarda, shu jumladan jinoyi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishda va terrorizmni moliyalashtirishda ishtirok etmasligini nazorat qilish choralarini ko'radi.</p>	<p>Юридические риски связаны с возможными нарушениями нормативно-правовых актов и заключенных договоров, допущением юридических ошибок (неправильные юридические консультации или оформление документов), несовершенством правовой системы или изменениями законодательства. Также существует риск нарушения нормативных актов со стороны партнеров, что может привести к финансовым потерям для общества.</p> <p>Для управления юридическими рисками общество принимает меры по их мониторингу, поддержанию допустимого уровня юридического риска, соблюдению внутренних нормативных документов, а также контролю за недопущением участия общества и его сотрудников в незаконных действиях, включая отмывание денег и финансирование терроризма.</p>
<p>operatsion xavf-xatarlar:</p>	<p>операционные риски:</p>
<p>Operatsion xavflar jamiyat xodimlarining qasddan noqonuniy xatti-harakatlari, uchinchi shaxslarning salbiy ta'siri, ichki tizimlardagi nosozliklar, kiberhujumlar, texnologik xatolar, shuningdek, tashqi omillar, shu jumladan tabiiy ofatlar bilan bog'liq.</p> <p>Jamiyat quyidagi operatsion xavflarni nazorat qiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Jamiyat manfaatlariga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar, shu jumladan qonunchilik va ichki me'yorlarga rioya qilmaslik. • Tashkiliy tuzilmadagi kamchiliklar, bo'limlar va xodimlar o'rtasida vazifalarning noto'g'ri taqsimlanishi. • Moliyaviy yo'qotishlarga olib keladigan ichki jarayonlar, IT-tizimlar, inson omili va tabiiy ofatlarning oqibatlaridagi xatolar. 	<p>Операционные риски связаны с умышленными незаконными действиями сотрудников общества, негативным воздействием третьих лиц, сбоями во внутренних системах, кибератаками, технологическими ошибками, а также внешними факторами, включая стихийные бедствия. Общество контролирует следующие операционные риски:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Действия, направленные против интересов общества, в том числе несоблюдение законодательства и внутренних нормативов. • Недостатки в организационной структуре, неправильное распределение обязанностей между отделами и сотрудниками. • Ошибки в работе внутренних процессов, IT-систем, человеческий фактор и последствия природных катаклизмов, приводящие к финансовым потерям.
<p>jamiyat qimmatli qog'ozlarini xarid qilish haqida qaror qabul qilish uchun muhim deb bilgan boshqa xavf-xatarlar:</p>	<p>иные риски, которые по мнению общества являются существенными для принятия решения о приобретении ценных бумаг общества:</p>
<p>Ushbu emissiya prospekti tasdiqlangunga qadar Jamiyat o'z qimmatli qog'ozlarini sotib olish to'g'risidagi qarorga ta'sir qiluvchi boshqa ahamiyatli xatarlarni aniqlamagan.</p>	<p>До момента утверждения данного эмиссионного проспекта Общество не выявило иных значимых рисков, влияющих на решение о приобретении его ценных бумаг.</p>
<p>37. Xatarlarni boshqarishda jamiyat siyosati to'g'risidagi ma'lumotlar:</p>	<p>Сведения о политике управления рисками общества:</p>
<p>Jamiyat faoliyatining asosiy jihatlarini qamrab olgan xatarlarni boshqarishning keng qamrovli tizimini joriy etdi. Xatarlarni boshqarish siyosati potensial moliyaviy va operatsion tahdidlarni minimallashtirishga, shuningdek, tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.</p>	<p>Общество внедрило комплексную систему управления рисками, которая охватывает ключевые аспекты деятельности компании. Политика управления рисками направлена на минимизацию потенциальных финансовых и операционных угроз, а также обеспечение устойчивого развития организации.</p>
<p>38. Jamiyatning ustav kapitali to'g'risidagi ma'lumotlar: (Ko'rsatiladi: ustavga ko'ra ustav kapitali hajmi, so'mda; hisob balansi bo'yicha ustav kapitali hajmi, so'mda; ustav kapitalining to'langan qismi miqdori, so'mda; Ma'lumot raqam va yozuv bilan ko'rsatiladi)</p>	<p>Сведения об уставном капитале общества. (Указывается: размер уставного капитала согласно уставу, в суммах; размер уставного капитала по данным бухгалтерского баланса, в суммах; объем оплаченной части уставного капитала, в суммах; Информация указывается цифрами и прописью)</p>
<p>ustavga ko'ra ustav kapitali hajmi, so'mda;</p>	<p>размер уставного капитала согласно уставу, в суммах;</p>
<p>Ustavning 24.07.2025 so'nggi tahririga ko'ra, Jamiyatning ustav kapitali miqdori 73 715 686 004 (yetmish uch milliard yetti yuz o'n besh million olti yuz sakson olti ming to'rt) so'mni tashkil etadi.</p>	<p>Согласно последней версии Устава от 24.07.2025 года размер уставного капитала Общества составляет 73 715 686 004 (семьдесят три миллиарда семьсот</p>

	Jamiyatning ustav kapitali O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq to'liq shakllantirilgan.	пятнадцать миллионов шестьсот восемьдесят шесть тысяч четыре) сум. Уставной капитал Общества полностью сформирован в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан.
	hisob balansi bo'yicha ustav kapitali hajmi, so'mda;	размер уставного капитала по данным бухгалтерского баланса, в суммах;
	Jamiyatning 2026-yil 1-yanvardagi so'nggi yillik hisobotiga ko'ra, ustav kapitali 73 715 686 004 (yetmish uch milliard yetti yuz o'n besh million olti yuz sakson olti ming to'rt) so'mni tashkil etadi.	Согласно последней годовой отчетности Общества на 1 января 2026 года, уставной капитал составляет 73 715 686 004 (семьдесят три миллиарда семьсот пятнадцать миллионов шестьсот восемьдесят шесть тысяч четыре) сум.
	ustav kapitalining to'langan qismi miqdori, so'mda;	объем оплаченной части уставного капитала, в суммах;
	Ustavning 24.07.2025 so'nggi tahririga ko'ra, Jamiyatning ustav kapitalining to'langan qismi miqdori 73 715 686 004 (yetmish uch milliard yetti yuz o'n besh million olti yuz sakson olti ming to'rt) so'mni tashkil etadi.	Согласно последней версии Устава от 24.07.2025 года объем оплаченной части уставного капитала Общества составляет 73 715 686 004 (семьдесят три миллиарда семьсот пятнадцать миллионов шестьсот восемьдесят шесть тысяч четыре) сум.
39.	Jamiyatning o'z kapitali to'g'risidagi ma'lumotlar, so'mda: <i>(Raqam va yozuv bilan ko'rsatiladi)</i>	Сведения о собственном капитале общества, в сум: <i>(Указывается цифрами и прописью)</i>
	2026-yil 1-yanvar holatiga Jamiyatning o'z kapitali 73 789 281 328,52 (yetmish uch milliard yetti yuz sakson to'qqiz million ikki yuz sakson bir ming uch yuz yigirma sakkiz so'm 52 tiyin) ni tashkil etadi.	По состоянию на 1 января 2026 года собственный капитал Общества составляет 73 789 281 328,52 (семьдесят три миллиарда семьсот восемьдесят девять миллионов двести восемьдесят одна тысяча триста двадцать восемь сум 52 тийин).
40.	Zaxira fondi to'g'risidagi ma'lumot: <i>(Ko'rsatiladi: zaxira fondining Ustav bo'yicha miqdori, foizda; qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanaga zaxira fondining asl miqdori, ming so'm; Qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanaga qadar zaxira fondi shakllanmagan bo'lsa, ushbu haqida ma'lumot javobda aks ettiriladi)</i>	Информация о резервном фонде. <i>Указываются: размер резервного фонда по уставу, в процентах; фактический размер резервного фонда на дату принятия решения о выпуске акций, в тыс. сум. В случае, если резервный фонд на момент принятия решения о выпуске ценных бумаг не сформирован, это следует отразить в ответе)</i>
	Jamiyatning zaxira fondi shakllantirilmagan.	Резервный фонд в Обществе не сформирован.
41.	Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar: <i>(Jamiyat fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlarni xarid qilish haqida qaror qabul qilish uchun bunday ma'lumotlarni oshkor qilish muhim bo'lgan moliyaviy koeffitsiyentlar ko'rsatiladi)</i>	Ключевые финансовые показатели. <i>(Указываются финансовые коэффициенты, раскрытие которых по мнению общества является существенным для принятия решения о приобретении ценных бумаг общества)</i>
	2026-yil 1-yanvar holatiga Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: <ul style="list-style-type: none"> • Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti – 0,5x; • Tartibga solish kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti – 33,0%; • Muammoli kreditlar darajasi – 4,1% • Qarzning kapitalga nisbati – 1,98x; • Kapital rentabelligi (ROE) – 3,0%; 	По состоянию на 01 января 2026 года основные показатели финансово-хозяйственной деятельности Общества составили: <ul style="list-style-type: none"> • Коэффициент абсолютной ликвидности – 0,5x; • Коэффициент достаточности регуляторного капитала – 33,0% • Уровень проблемных кредитов – 4,1% • Соотношение Долга к Капиталу – 1,98x; • Рентабельность капитала (ROE) – 3,0%
42.	Jamiyatning hisob yuritish siyosati haqidagi ma'lumotlar:	Сведения об учетной политике общества:
	Jamiyat buxgalteriya hisobini so'mda yuritadi va moliyaviy hisobotni Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tuzadi. Jamiyatning hisob siyosati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan.	Общество ведет бухгалтерский учет в узбекских суммах и составляет финансовую отчетность в соответствии с Национальными стандартами бухгалтерского учета (НСБУ) и законодательными актами Республики Узбекистан. Учетная политика Общества разработана в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.
43.	So'nggi 3 (uch) tugallangan moliyaviy yil uchun daromaddan foydalanish asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ming so'm: <i>(Bo'sh katakda jamiyat necha yillik ma'lumotlarni taqdim etayotganligi ko'rsatiladi)</i>	Сведения об основных направлениях использования прибыли за последние 3 (три) заверенных финансовых года, в тыс. сум. <i>(В пустой графе указывается количество лет, по которым общество раскрывает информацию)</i>
	2023-2025-yillar davomida ta'sischi o'rtasida jami 44 703 545,77 ming so'm dividend ko'rinishidagi sof foyda taqsimlangan.	За период 2023-2025 гг. чистая прибыль была распределена в виде дивидендов между учредителями на общую сумму 44 703 545,77 тыс. сум.
44.	Mazkur Risola tasdiqlangan kungacha so'nggi 1 (bir) yil uchun affillangan shaxslar bilan tuzilgan yirik bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar:	Сведения о крупных сделках с аффилированными лицами за последний 1 (один) год до утверждения настоящего Проспекта.

	<p>(Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizidan ortig'ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashurish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno)</p>	<p>(Крупной сделкой считается сделка (в том числе заем, кредит, залог, поручительство) или несколько взаимосвязанных сделок, связанных с приобретением или отчуждением либо возможностью отчуждения обществом имущества, если балансовая стоимость отчуждаемого имущества или стоимость приобретаемого имущества составляет более пятнадцати процентов от размера чистых активов общества на дату принятия решения о заключении таких сделок, за исключением сделок, совершаемых в процессе осуществления текущей хозяйственной деятельности, и сделок, связанных с размещением акций и иных ценных бумаг)</p>
	<p>2025-yil uchun affillangan shaxslar bilan yirik bitimlar mavjud emas.</p>	<p>Крупных сделок с аффилированными лицами за 2025 год не имеется.</p>
45.	<p>Jamiyat aktivlari umumiy hajmining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan aktivlar, har bir aktivning tegishli balans qiymati ko'rsatiladi:</p>	<p>Активы общества, составляющие 10 и более процентов от общего объема активов общества, с указанием соответствующей балансовой стоимости каждого актива.</p>
